



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



## QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

2023-YIL YANVAR-DEKABR OYLARI



(DASTLABKI MA'LUMOTLAR)

## QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARI HAJMI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi – **16 548,3** mlrd. so‘mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – **15 605,2** mlrd. so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – **681,3** mlrd. so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – **261,9** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

### 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmi

#### Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi

**Jami**  
**16 548,3**  
**mlrd. so‘m**

**o‘shish sur‘ati**  
**104,1 %**



**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

<b>Hajmi</b>	<b>15 605,2</b> <b>mlrd. so‘m</b>
--------------	--------------------------------------

<b>O‘shishi</b>	<b>104,1 %</b>
-----------------	----------------



**O‘rmon xo‘jaligi**

<b>Hajmi</b>	<b>681,3</b> <b>mlrd. so‘m</b>
--------------	-----------------------------------

<b>O‘shishi</b>	<b>103,0 %</b>
-----------------	----------------




**Baliqchilik xo‘jaligi**

<b>Hajmi</b>	<b>261,9</b> <b>mlrd. so‘m</b>
--------------	-----------------------------------

<b>O‘shishi</b>	<b>106,9 %</b>
-----------------	----------------

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o‘z iste‘moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo‘jaligida, o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.


## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining o‘shish sur‘ati



- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda – **104,1 %** ni (2022-yilning yanvar-dekabr oylari mos ravishda 2021-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan – **103,3 %**), o‘rmon xo‘jaligi – **103,0 %** ni (**101,5 %**), baliqchilik xo‘jaligi – **106,9 %** ni (**86,1 %**) tashkil qildi.

## Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi




2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining **94,3 %** i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **94,1 %**), **4,1 %** i – o‘rmon xo‘jaligi (**4,3 %**), **1,6 %** i – baliqchilik xo‘jaligi (**1,6 %**) hissasiga to‘g‘ri keldi.




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi, (% da)



2023-yilning dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushini Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududlari kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulushi Amudaryo tumanida (**18,8 %**), Beruniy tumanida (**13,1 %**), Ellikqal‘a tumanida (**10,5 %**), To‘rtko‘l tumanida (**10,2 %**) va Chimboy tumanida (**8,4 %**) qayd etildi. Aksincha ulushi kam hududlar Nukus tumanida (**3,2 %**), Taxiato‘sh tumanida (**2,3 %**), Bo‘zatov tumani (**1,8 %**), Mo‘ynoq tumani (**1,4 %**) va Nukus shahrini (**0,7 %**) keltirib o‘tish mumkin.



## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, (mlrd. so‘m)




2023–yilning yanvar–dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (**3 114,5** mlrd. so‘m), Beruniy (**2 166,7** mlrd. so‘m), Ellikqal‘a (**1 745,7** mlrd. so‘m), Chimboy (**1 384,4** mlrd. so‘m), Qonliko‘l (**873,9** mlrd. so‘m), Qo‘ng‘irot (**833,0** mlrd. so‘m), Xo‘jayli (**791,7** mlrd. so‘m), Shumanay (**698,6** mlrd. so‘m), Taxtako‘pir (**570,5** mlrd. so‘m) va Kegeyli (**565,1** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hudud Mo‘ynoq (**237,9** mlrd. so‘m) tumani va Nukus shaharni (**117,1** mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘rsatkichidan (**104,1** %) yuqori o‘sish sur‘ati Shumanay (**114,7** %) tumanida, Qorao‘zak (**100,2** %) tumanida esa aksincha o‘sish sur‘ati pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘shish sur‘ati, (% da)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘rsatkichidan (**104,1 %**) yuqori o‘shish sur‘atlari Shumanay (**114,7 %**), Bo‘zatov (**113,5 %**), Taxtako‘pir (**109,0 %**), Qonliko‘l (**107,6 %**), Qo‘ng‘irot (**105,2 %**), Xo‘jayli (**105,1 %**), Amudaryo (**104,7 %**) va Kegeyli (**104,6 %**) tumanlarida kuzatildi, Nukus shaharda (**101,6 %**), To‘rtko‘l (**101,6 %**), Ellikqal‘a (**101,2 %**), Mo‘ynoq (**100,7 %**) va Qorao‘zak (**100,2 %**) tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.





## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023–yilning yanvar–dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **15 349,3** mlrd. so‘mni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan **104,0 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – **7 148,4** mlrd. so‘mni (**105,4 %**), chorvachilik mahsulotlari – **8 200,8** mlrd. so‘mni (**102,7 %**) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi


Dehqonchilik mahsulotlari




Chorvachilik mahsulotlari



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **60,8 %** – dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, **30,9 %** – fermer xo‘jaliklariga, **8,3 %** – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (% da)



2023-yilning yanvar–dekabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qonliko‘l (**56,9 %**) va Amudaryo tumanlarida (**37,1 %**), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Nukus (**92,4 %**) shaharda, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Mo‘ynoq (**16,3 %**) tumanida qayd etildi. Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Bo‘zatov tumanida (**7,7 %**), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Qonliko‘l tumanida (**39,2 %**), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Taxtako‘pir tumanida (**3,0 %**) qayd etildi.




## Aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlarda **8 318,1** ming so‘mni, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **102,7 %** ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlardagi tarmoq umumiy hajmini hududimizning hisobot davridagi o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi doimiy aholisining o‘rtacha soni 2023-yilning yanvar-dekabrda **1 989,4** ming kishini tashkil etgan.

### Hududlar kesimida aholi jon boshiga hisoblangan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi, (ming so‘m)




Hisobot davrida hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘atini tahlil qilar ekanmiz:

Eng yuqori o‘shish sur‘atini qayd etgan hududlarga Shumanay (**113,7 %**), Bo‘zatov (**113,4 %**), Taxtako‘pir (**111,4 %**), Qonliko‘l (**106,2 %**), Qo‘ng‘irot (**103,9 %**) tumanlarini keltirib o‘tishi lozim.

Aksincha o‘shish sur‘ati past hududlarga Beruniy (**100,5 %**), Nukus sh. (**100,1 %**), To‘rtko‘l (**99,8 %**), Mo‘ynoq (**99,7 %**), Qorao‘zak (**99,5 %**) va Ellikqal‘a (**99,3 %**) tumanlarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

## DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlari hajmi, (mlrd. so'm)



Qoraqalpog'iston Respublikasi  
2023-yil yanvar-dekabr



**7 148,4**  
mlrd. so'm



o'sish sur'ati  
**105,4 %**

**Qishloq xo'jaligidagi mahsulotlarning umumiy hajmidagi ulushi**

**46,6 %**



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi **46,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (**1 740,6** mlrd. so'm), Beruniy (**943,6** mlrd. so'm) va To'rtko'l (**717,6** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo'ynoq (**33,1** mlrd. so'm), Bo'zatov (**64,4** mlrd. so'm) tumanlari va Nukus shaharni (**36,2** mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Bo'zatov (**151,1 %**), Taxtako'pir (**124,6 %**), Nukus sh. (**121,1 %**), Shumanay (**115,3 %**) va Taxiatosh (**112,6 %**) tumanlarida qayd etildi. To'rtko'l (**101,5 %**), Qorao'zak (**99,4 %**) va Mo'ynoq (**95,4 %**) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


## DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH

2023-yilning yanvar-dekabrida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan **312,2** ming t. donli ekinlar (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan **0,0** % ga teng), **96,4** ming t. kartoshka (**2,9** % ga ko'p), **333,4** ming t. sabzavotlar (**4,5** % ga ko'p), **183,5** ming t. poliz (**5,8** % ga ko'p), **67,2** ming t. meva va rezavorlar (**5,8** % ga ko'p), **11,6** ming t. uzum (**2,2** % ga ko'p) yetishtirildi.

### 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari


	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
<b>Donli ekinlar</b>	312,2	100,0	246,9	98,4	33,2	104,1	32,1	109,4
<b>Sabzavotlar</b>	333,4	104,5	131,6	103,8	192,8	104,4	9,0	117,7
<b>Kartoshka</b>	96,4	102,9	32,9	101,5	62,6	104,2	0,9	77,4
<b>Poliz ekinlari</b>	183,5	105,8	98,6	107,0	80,0	103,5	4,9	122,7
<b>Meva va rezavorlar</b>	67,2	105,8	29,8	107,5	27,3	103,8	10,1	106,5
<b>Uzum</b>	11,6	102,2	4,7	106,7	6,0	98,7	0,9	104,3

## 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarida xo'jalik toifalarining ulushi (% da)



2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **79,1 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **10,6 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **10,3 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda sabzavotlarning **39,5 %** i fermer xo'jaliklariga, **57,8 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, kartoshkaning **34,1 %** i fermer xo'jaliklariga, **65,0 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **0,9 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining **53,7 %** i fermer xo'jaliklariga, **43,6 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning **44,4 %** i fermer xo'jaliklariga, **40,6 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **15,0 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning **40,7 %** i fermer xo'jaliklariga, **51,6 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **7,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.






2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **312,2** ming tonna donli ekinlar yetishtirildi.

Donli ekinlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, don ekinlari yetishtirishning eng katta hajmi – **246,9** ming tonna fermer xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda donli ekinlar yetishtirish hajmi 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda **100,0 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarida **98,4 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **104,1 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **109,4 %** tashkil etdi.

**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)**



2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan donli ekinlar ma'lumotlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **79,1 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **10,6 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **10,3 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.




Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>312 233,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Nukus sh.	23,8	0,01	32,6
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	73 001,6	23,4	100,3
Beruniy	40 054,4	12,8	102,2
Bo'zatov	5 200,0	1,7	2,9 m.
Qorao'zak	10 004,8	3,2	79,1
Kegeyli	6 263,7	2,0	84,0
Qo'ng'iro't	13 193,7	4,2	100,0
Qonliko'l	34 277,4	11,0	109,2
Mo'ynoq	3 130,1	1,0	104,4
Nukus t.	9 991,7	3,2	74,7
Taxiatosh	5 032,7	1,6	101,0
Taxtako'pir	12 887,8	4,1	179,4
To'rtko'l	28 251,2	9,0	92,3
Xo'jayli	7 427,4	2,4	92,2
Chimboy	27 555,0	8,8	93,2
Shumanay	15 491,5	5,0	107,5
Ellikqal'a	20 446,2	6,5	91,1

## Donli ekinlar




Don ekinlarini yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, don ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **23,4 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Beruniy (**12,8 %**), Qonliko'l (**11,0 %**), To'rtko'l (**9,0 %**) Chimboy (**8,8 %**) va Ellikqal'a (**6,5 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmdagi past ulush, Mo'ynoq (**1,0 %**) va Taxiatosh (**1,6 %**) tumanlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Bo'zatov (**2,9** barobar), Taxtako'pir (**179,4 %**), Qonliko'l (**109,2 %**), Shumanay (**107,5 %**) va Mo'ynoq (**104,4 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Nukus tumanida (**74,7 %**) va Nukus shahrida (**32,6 %**) kuzatish mumkin.

Hajmi, *ming tonna*




2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **333,4** ming tonna sabzavot yetishtirildi.

Sabzavotlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishning eng katta hajmi – **192,8** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda sabzavot yetishtirish hajmi 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda **104,5 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **3,8 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **4,4 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **17,7 %** o'sish qayd etildi.

O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan sabzavot ma'lumotlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishning **39,5 %**i fermer xo'jaliklari hissasiga, **57,8 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **2,7 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>333 366,0</b>	<b>100,0</b>	<b>104,5</b>
Nukus sh.	5 117,0	1,5	115,7
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	83 881,4	25,2	105,1
Beruniy	31 299,8	9,4	102,9
Bo'zatov	2 894,0	0,9	100,9
Qorao'zak	6 234,3	1,9	101,1
Kegeyli	7 334,4	2,2	100,2
Qo'ng'iro't	17 984,9	5,4	102,5
Qonliko'l	27 837,4	8,4	110,1
Mo'ynoq	1 634,1	0,5	45,6
Nukus t.	21 849,0	6,6	106,7
Taxiatosh	6 021,8	1,8	100,4
Taxtako'pir	5 664,4	1,7	102,7
To'rtko'l	36 253,5	10,9	106,2
Xo'jayli	9 534,2	2,9	102,2
Chimboy	23 641,0	7,1	103,0
Shumanay	17 407,6	5,2	113,9
Ellikqal'a	28 777,2	8,6	102,7

## Sabzavotlar




Sabzavot yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, sabzavot ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **25,2 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush To'rtko'l (**10,6 %**), Beruniy (**9,4 %**), Ellikqal'a (**8,6 %**) Qonliko'l (**8,4 %**) va Chimboy (**7,1 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmdagi past ulush, Mo'ynoq (**0,5 %**) va Bo'zatov (**0,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahrida (**115,7 %**), Shumanay (**113,9 %**), Qonliko'l (**110,1 %**), Nukus (**106,7 %**) va To'rtko'l (**106,2 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Mo'ynoq (**45,6 %**) tumanida kuzatish mumkin.



## Hajmi, ming tonna




2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **96,4** ming tonna kartoshka yetishtirildi.

Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi – **62,6** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda kartoshka yetishtirish hajmi 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda **102,9 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarida **101,5 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **104,2 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **77,4 %** tashkil etdi.

## O'sish sur'ati



## Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan kartoshka ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka yetishtirishning **34,1 %**i fermer xo'jaliklari hissasiga, **65,0 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **0,9 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.




Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>96 407,0</b>	<b>100,0</b>	<b>102,9</b>
Nukus sh.	446,3	0,5	107,9
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	23 157,4	24,0	106,9
Beruniy	11 369,1	11,8	101,2
Bo'zatov	1 370,6	1,4	101,4
Qorao'zak	3 219,2	3,3	114,4
Kegeyli	1 629,6	1,7	114,0
Qo'ng'iro't	9 065,7	9,4	104,2
Qonliko'l	2 185,4	2,3	112,4
Mo'ynoq	433,5	0,4	22,9
Nukus t.	3 353,5	3,5	105,0
Taxiatosh	2 440,3	2,5	105,2
Taxtako'pir	2 902,6	3,0	101,6
To'rtko'l	12 439,3	12,9	103,5
Xo'jayli	4 122,3	4,3	105,8
Chimboy	6 916,4	7,2	101,4
Shumanay	2 516,8	2,6	103,3
Ellikqal'a	8 839,0	9,2	102,1


## Kartoshka



Kartoshka yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, kartoshka ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **24,0 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush To'rtko'l (**12,9 %**), Beruniy (**11,8 %**), Qo'ng'iro't (**9,4 %**) Ellikqal'a (**9,2 %**) va Chimboy (**7,2 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmdagi past ulush, Mo'ynoq (**0,4 %**) tumanida va Nukus (**0,5 %**) sharida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Qorao'zak (**114,4 %**), Kegeyli (**114,0 %**), Qonliko'l (**112,4 %**), Amudaryo (**106,9 %**) tumanlarida va Nukus (**107,9 %**) shahrida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Mo'ynoq (**22,9 %**) tumanida kuzatish mumkin.




2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **183,5** ming tonna poliz ekinlari yetishtirildi.


Poliz yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz yetishtirishning eng katta hajmi – **98,6** ming tonna fermer xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda poliz ekinlari yetishtirish hajmi 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda **105,8 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **7,0 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **3,5 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **22,7 %** o'sish qayd etildi.



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)**



2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan poliz ekinlari ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz yetishtirishning **53,7 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **43,6 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **2,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
-----------------	-----------------	----------------------------

## Qoraqalpog'iston Respublikasi

183 521,0	100,0	105,8
-----------	-------	-------

Nukus sh.	855,5	0,5	100,9
-----------	-------	-----	-------

### tumanlar:

Amudaryo	31 390,8	17,1	106,8
----------	----------	------	-------

Beruniy	23 190,5	12,6	101,8
---------	----------	------	-------

Bo'zatov	2 771,0	1,5	102,0
----------	---------	-----	-------

Qorao'zak	6 856,8	3,7	115,4
-----------	---------	-----	-------

Kegeyli	6 007,4	3,3	98,0
---------	---------	-----	------

Qo'ng'iro't	8 788,1	4,8	105,4
-------------	---------	-----	-------

Qonliko'l	20 028,8	10,9	114,1
-----------	----------	------	-------

Mo'ynoq	833,7	0,5	57,6
---------	-------	-----	------

Nukus t.	10 228,3	5,6	110,0
----------	----------	-----	-------

Taxiatosh	3 773,0	2,1	104,7
-----------	---------	-----	-------

Taxtakopir	5 930,4	3,2	100,0
------------	---------	-----	-------

To'rtko'l	14 919,2	8,1	110,6
-----------	----------	-----	-------

Xo'jayli	5 121,1	2,8	106,5
----------	---------	-----	-------

Chimboy	18 805,2	10,2	106,7
---------	----------	------	-------

Shumanay	11 525,8	6,3	106,2
----------	----------	-----	-------

Ellikqal'a	12 495,4	6,8	98,2
------------	----------	-----	------

## Poliz ekinlari




Polizlar yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, poliz ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **17,1 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Beruniy (**12,6 %**), Qonliko'l (**10,9 %**), Chimboy (**10,2 %**) To'rtko'l (**8,1 %**) va Ellikqal'a (**6,8 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmdagi past ulush, Mo'ynoq (**0,5 %**) tumanida va Nukus (**0,5 %**) shahrida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Qorao'zak (**115,4**), Qonliko'l (**114,1 %**), To'rtko'l (**110,6 %**), Nukus (**110,0 %**) va Amudaryo (**106,8 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Mo'ynoq (**57,6 %**), Kegeyli (**98,0**) va Ellikqal'a (**98,2 %**) tumanlarida kuzatish mumkin.



# MEVA VA REZOVORLAR




2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **67,2** ming tonna meva va rezovorlar yetishtirildi.


Meva va rezovorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva yetishtirishning eng katta hajmi – **29,8** ming tonna fermer xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda meva va rezovorlar yetishtirish hajmi 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda **105,8 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **7,5 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **3,8 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **6,5 %** o'sish qayd etildi.



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)**



2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan meva va rezovorlar ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva va rezovorlar yetishtirishning **44,4 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **40,6 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **15,0 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.




Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>67 182,0</b>	<b>100,0</b>	<b>105,8</b>
Nukus sh.	264,8	0,4	102,9
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	20 646,3	30,7	106,3
Beruniy	12 373,2	18,4	107,9
Bo'zatov	688,2	1,0	102,6
Qorao'zak	975,2	1,5	106,2
Kegeyli	1 749,6	2,6	101,7
Qo'ng'iro't	2 406,6	3,6	106,1
Qonliko'l	3 120,9	4,6	110,1
Mo'ynoq	130,0	0,2	101,5
Nukus t.	1 273,7	1,9	103,4
Taxiatosh	809,4	1,2	103,9
Taxtako'pir	828,8	1,2	101,5
To'rtko'l	7 073,1	10,5	100,7
Xo'jayli	1 368,4	2,0	108,0
Chimboy	2 505,2	3,7	103,6
Shumanay	1 473,2	2,2	124,8
Ellikqal'a	9 495,4	14,1	104,4

## Meva va rezovorlar




Meva va rezovorlar yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, meva ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **30,7 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Beruniy (**18,4 %**), Ellikqal'a (**14,1 %**), To'rtko'l (**10,5 %**) Qonliko'l (**4,6 %**) va Chimboy (**3,7 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmdagi past ulush, Mo'ynoq (**0,2 %**) tumanida va Nukus shahrida (**0,4 %**) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Shumanay (**124,8**), Qonliko'l (**110,1 %**), Xo'jayli (**108,0 %**), Beruniy (**107,9 %**) va Amudaryo (**106,3 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati To'rtko'l (**100,7 %**) tumanida boshqalarga nisbatan pastligini kuzatish mumkin.

Hajmi, *ming tonna*




2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **11,6** ming tonna uzum yetishtirildi.

Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum yetishtirishning eng katta hajmi – **6,0** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda uzum yetishtirish hajmi 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda **102,2 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarida **106,7 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **98,7 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **104,3 %** tashkil etdi.

O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan uzum ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum yetishtirishning **40,7 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **51,6 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **7,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.




Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>11 164,0</b>	<b>100,0</b>	<b>102,2</b>
Nukus sh.	202,4	1,7	100,0
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	2 647,4	22,8	103,8
Beruniy	1 968,1	16,9	106,1
Bo'zatov	78,1	0,7	101,2
Qorao'zak	151,4	1,3	103,3
Kegeyli	216,5	1,9	100,9
Qo'ng'iro't	610,4	5,3	94,1
Qonliko'l	243,6	2,1	105,3
Mo'ynoq	16,6	0,1	106,8
Nukus t.	468,1	4,0	100,3
Taxiatosh	299,8	2,6	101,3
Taxtako'pir	276,8	2,4	102,4
To'rtko'l	1 158,7	10,0	100,3
Xo'jayli	421,3	3,6	105,3
Chimboy	409,7	3,5	102,1
Shumanay	126,0	1,1	103,4
Ellikqal'a	2 319,1	20,0	100,5

## Uzum




Uzum yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, uzum ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **22,8 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Ellikqal'a (**20,0 %**), Beruniy (**16,9 %**), To'rtko'l (**10,0 %**) Qo'ng'iro't (**5,3 %**) va Nukus (**4,0 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmdagi past ulush, Mo'ynoq (**0,1 %**) va Bo'zatov (**0,7 %**) tumanlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Mo'ynoq (**106,8 %**), Beruniy (**106,1 %**), Qonliko'l (**105,3 %**), Xo'jayli (**105,3 %**) va Amudaryo (**103,8 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Qo'ng'iro't (**94,1 %**) tumanida kuzatish mumkin.



## Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmi, (mlrd. so‘m)



## Qoraqalpog‘iston Respublikasi 2023-yil yanvar-dekabr



**8 200,9**  
mlrd. so‘m



**o‘sinh sur‘ati**  
**102,7 %**

### Qishloq xo‘jaligidagi mahsulotlarning umumiy hajmidagi ulushi

**53,4 %**



Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi **53,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (**1 165,4** mlrd. so‘m), Beruniy (**1 123,8** mlrd. so‘m) va Ellikqal‘a (**975,3** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahar (**52,4** mlrd. so‘m) va Mo‘ynoq (**115,8** mlrd. so‘m), Nukus tumanlarini (**207,5** mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sinh sur‘atlari Shumanay (**114,6 %**), Amudaryo (**106,4 %**), Qo‘ng‘irot (**106,1 %**) va Bo‘zatov (**105,5 %**) tumanlarida qayd etildi. Nukus (**92,0 %**) shahrida, Taxiatosh (**97,3 %**), Ellikqal‘a (**99,9 %**) va Nukus (**100,2 %**) tumanlarida esa aksincha o‘sinh sur‘atlari pastligi kuzatildi.


## 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
<b>Go'sht</b> (tirik vaznda)	123,8	102,4	5,1	104,2	117,1	102,8	1,6	75,6
<b>Sut</b>	448,2	103,2	32,1	116,8	410,3	102,2	5,8	106,2
<b>Tuxum</b> (mln. dona)	398,3	102,9	33,5	101,3	292,7	102,8	72,1	104,2
<b>Jun, tonna</b>	1 562	103,8	247	110,8	1 269	103,9	46	75,4
<b>Qorako'l teri,</b> (ming. dona)	93,9	101,3	9,1	105,6	83,2	100,9	1,6	101,5
<b>Baliq</b>	11,6	101,9	5,2	111,3	2,0	101,8	4,4	92,8

2023-yilning yanvar-dekabrda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda **123,8** ming t. go'sht, **448,2** ming t. sut, **398,3** mln. dona tuxum, **1 562** tonna jun, **93,9** ming dona qorako'l teri va **11 597,2** tonna baliq ovlandi.


Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan – **102,4 %** ni, sog'ib olingan sut – **103,2 %** ni, olingan tuxum – **102,9 %** ni, qirqib olingan jun – **103,8 %** ni, olingan qorako'l teri – **101,3 %** ni hamda ovlangan baliqlar – **101,9 %** ni tashkil qildi.

## 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar



